XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 23 - fevral VI-61-43-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumani budjetining 2023-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-sonli Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘ hisobidan ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumani mahalliy budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari **jami 1 513 240,0 ming so‘mni** tashkil etganligi ma’lumat uchun qabul qilinsin.

3. Joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan **jami 1 032 944,0 ming so‘m mablag‘** ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Qiziriq tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **T.Almuratov**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023 yil 23 fevraldagi
VI-61-43-8-113-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Qiziriq tuman maxalliy budjetining 2023-yil yil boshiga shakillangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/r	Tashkilotlar nomi	Ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming so‘mda)	Foiz hisobida
A	1	2	3	4
Jamin shakillangan manba			**1 513 240,0**	**100%**
Jami ajratiladigan mablag‘:			**1 032 944,0**	**68,3%**
I.	**Davlat boshqaruv organlariga.**		**1 032 944,0**	**100,0%**
1	Tuman hokimligiga	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	453 972,0	43,9%
2		Tuman hokimligi xodimlarini rag‘batlartirish uchun ish haq va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun	100 000,0	9,7%
3	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	Xalq deputatlari tuman Kengashi xodimlarini rag‘batlartirish uchun ish haq va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun	25 000,0	2,4%
4	Tuman Moliya bo‘limiga	“Yoshlar daftari”ga jamg‘armasiga	226 986,0	22,0%
5		“Ayollar daftari”ga jamg‘armasiga	226 986,0	22,0%